

**BOSHLANG`ICH TA`LIMNING SAMARADORLIGI.****Dilafruz**

*Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang`ich  
ta`lim va sport tarbiyaviy ishlari mutaxassisligi  
Yo`nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilariga ta`lim berishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, bolalarni ko`rgazmali qurollar bilan darsga e`tiborini jalb qilish, darsni sifatiga alohida e`tibor qaratish haqida ma`lumot beriladi.*

**Kalit so`zlar:** *o`quvchilar, maktab, ko`rgazmali qurollar, sifat, daraja, qiziqtirish, o`qitish, kuzatish.*

Boshlang'ich sinflarda tabiiy-ilmiy bilimlarni egallashda birinchi o'rinda, ko'rgazmalilikka e'tibor berishimiz zarur. Chunki ushbu bilimlar bevosita bolalarning ko'z o'ngida sodir bo'layotgan tabiat hodisalari bilan bog'liq. Shuning uchun dars qanchalik faol ishtirok etilmasin o'quvchi uni ko'rishi, tasavvur qilishi, iloji bo'lsa, qo'llari bilan ushlab ko'rgandek darajada aniq his eta olishi, mushohada qilish, erkin fikr yuritish darajasida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi lozim. Bunda o'quvchilar ushbu darslarda turli guruhlariga mansub o'simlik va hayvonlar, parrandalar hamda hasharotlarning tuzilishi, ko'payishi, rivojlanishi, yer yuzida tarqalishi, turlarining xilma-xilligi bilan tanishadi; ularni sistemaga solish va aniqlashni o'rganishadi. Bulardan tashqari yer va uning tuzilishi, koinot va undagi sayyoralar, vatanimiz chegaralari, odam va uning tuzilishi kabi bilimlardan ham boxabar bo'lishadi. Buning uchun albatta, har xil didaktik vositalar va o'quv materiallardan ko'proq foydalanishga e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinflarda tabiiy-ilmiy bilimlarni egallashda bunday didaktik vositalarga o'quv va metodik qo'llanmalardan tashqari rasmi jadvallar xarita, globus, optik asboblari, o'simliklardan tayyorlangan gerbariyalar, hayvonlarning quruq va ho'l preparatlari, didaktik testlar, topshiriqlar, krossvordlar va hatto multimediali elektron vositalar, ya'ni hozirgi kunda rivojlanib borayotgan kompyuter texnika vositalari tabiat va undagi hodisalarni ifodalovchi o'quv diafilmlari va boshqalarni kiritish mumkin.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismi "shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi"si ekanligi ko'rsatilgan. Bu esa ta'lim tizimini isloh qilishni, doimo takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishidir. Uzoq vaqt hukm surgan "ta'lim – ta'lim uchun" tamoyili ta'lim – tarbiyaning ming – ming yillik predmeti yoshlarni hayotga tayyorlash, yashashga tayyorlash, o'zligini

anglashdan chalg'itdi. Ta'lim – tarbiyani, maktabni jamiyatdan, o'quvchini maktabdan o'qituvchidan begonalashuviga olib keldi. Natijada, yoshlarni manqurtlashtirish, buyuk imkoniyatlarga ega bo'lgan mamlakatni iqtisodiy nochorlik, yoshlarni sarson - sargardonligi holati yuzaga keldi. Shuning uchun ta'lim nazariyasi ham “kimga, nimani qanday o'qitish” didaktik prinstipiga asoslangan edi. Bugungi kunda kadrlar tayyorlash milliy dasturida “Kimni, nima uchun qanday o'qitish” ni tashkil etish pedagogik texnologiya yaratish talabini qo'yadi. Jahon tajribasida zamonaviy pedagogik texnologiya va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodologiyasi biri – birini to'ldiradi. Ta'lim – tarbiyaning shaxsni rivojlantiruvchi vazifasi har tomonlama yanada dolzarb muammoga aylandi. Islom Karimov o'zining “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida ta'lim- tarbiyaning uyg'unligi, ta'lim – tarbiyani shaxsga yo'naltirish metodologik asosini belgilab berdi; Har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim,.. Bu esa talim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi”. Demak, shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy tamoyillaridan biri ta'lim – tarbiyaning uzviy bog'liqligi, ta'limning tarbiyaviy imkoniyatlarini oshirishdir. Ya'ni, o'quvchi shaxsini fikriy modellashtirish, uni shakllantirishda ta'lim mazmunining imkoniyatlarini aniqlash, tarbiyaviy vazifani belgilash va samarali metodik tizimini yaratishdir. Ma'lumki, yoshlarni shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishida o'quv – biluv jarayoni alohida o'rin tutadi.

Ta'lim – tarbiyaning davr talabiga mavjud shart – sharoitiga mosligi qonuniyati o'quvchi shaxsining modelidan, kelib chiqadi. Har bir fanni o'qitishda, sinfdan tashqari ta'lim – tarbiya ishlari maqsadi o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratiladi. Ta'lim – tarbiya mazmuni, metodlari, vositalari ham to'la ma'noda o'quvchi shaxsi imkoniyatlariga asosan belgilanadi. Bunda ta'lim – tarbiya maqsad, mazmun, metod va vositalari o'zaro bog'liqligi qonuniyatiga asoslanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – tarbiya nazariy asosi Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarida o'z ifodasini, hayotda o'z isbotini topgani fikrimiz dalilidir. Ta'lim – tarbiyaning uzviy bog'liqligi Islom Karimov ta'kidlaganidek, “Sharqona hayot falsafasi” ekanligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning metodologik asosidir.

O'quvchi yoshlar o'z “men”ini bilish darajasi shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy tamoyilidir. Abu Nasr Farobiy “Ixtisa al ulum” asarida ta'lim-tarbiya avvalo, inson o'zligini bilishiga qaratilishini tavsiya etadi. Har-bir shaxsning bioquvvatlar tizimni, fanlar tasnifini ilmiy asoslaydi, ta'lim-tarbiya yoshlarni hayotga tayyorlash yo'nalishini ko'rsatadi. Abu Ali ibn Sinoning didaktik ta'limotida shaxsni har

tomonlama kamolotida ta'lim-tarbiyaning imkoniyati, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim prinsplarining tarixiy ahamiyatini ko'ramiz. Demak, ta'lim-tarbiyaning milliy asosida shaxs o'zligini bilishi ustivorligi tarixiy taraqqiyot o'z isbotini topgan. Ilmiy kuzatishlar shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha ifodalash mumkin.

Boshlang'ich sinflarga tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish va ulardan yuqorida keltirilgan tartibda foydalanish dars samaradorligini oshirishda yaxshi natijalar beradi. Chunki, mashg'ulotlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish o'quvchilar uchun qulaylik tug'diradi, ularni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, mas'uliyatini oshiradi, eng sust o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ham ilhomlantirgan holda harakatlantiradi.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi. Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

1. O'quvchilarning milliy ma'naviyatini shakllantirishda boshlang'ich ta'limning o'rni" mavzusiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar to'plami. Nizomiy nomidagi TDPU. Toshkent. 2010-yil.
2. Ma'rifat" gazetasi. 2012-yil. 28-noyabr, № 94 (8535).
3. Prezident asarlari